

«HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI»
AKSIYADORLIK JAMIYATI
«ANDIJON XUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI KORXONASI»
AKSIYADORLIK JAMIYATI

БОБУР

ELEKTR TA'MINOTI KORXONASI



**Hududiy
Elektr
Tarmoqlari**

YURIDIK SHAXSLAR UCHUN ENERGIYA TA'MINOTI SHARTNOMASI

№ 110005

PLW ta PLLShM LLP

(korxonaga, tashkilot nomi)

ANDIJON-2022 yil

**Ulgurji iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berish
shartnomasi**

20 2005 yil "5" oyi "01" kuni son 11005

Angusmon ue
(shartnoma tuzilgan joy)

Iste'molchining shaxsiy hisob-raqami:

| | | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|
| | | | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|--|--|

"Bo'yan 2i masli korx" AJ
tuman (shahar) elektr ta'minoti korxonasi 202__ yil " " da ro'yxatdan
o'tkazilgan - son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi rahbari

(elektr ta'minoti korxonasi rahbarining F.I.Sh.)

(keyingi o'rinlarda **Ta'minotchi korxonasi** deb ataladi) bir tomondan hamda ikkinchi tomondan Ulgurji iste'molchi (keyingi o'rinlarda **Iste'molchi** deb ataladi)

PLD korx PLD korx AP
rahbari T. M. Aliev
(xo'jalik yurituvchi sub'ektning to'liq nomi)
(xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbarining yoki ishonchli vakilining F.I.Sh.)

bilan Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI.

1. Ushbu elektr energiyasi ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rinlarda – **Shartnoma** deb ataladi) muvofiq, Ta'minotchi korxonasi Iste'molchiga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali etkazib berish va Iste'molchi iste'mol qilgan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

II. ETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI HISOBGA OLISH.

2.1. Elektr energiyasi iste'molining yillik shartnomaviy hajmi:

aktiv energiyasi _____ kVt*soat;
reaktiv energiyasi _____ kVar*soat.

2.2. Etkazib beriladigan elektr energiyaning shartnoma tuzilgan kunidagi narxi _____ so'mni, tarif bo'yicha _____ so'mni tashkil etadi. Tarif turlari

abaqalashtirilgan, birlavkali, aholi narxi va boshqalar (egishlisi yoziladi)

2.3. Iste'molchiga etkazib beriladigan elektr energiyasining oylar kesimidagi yillik hajmi ushbu Shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

Ta'minotchi korxonasi tomonidan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun elektr ta'minotida tanqislik yuzaga kelgan taqdirda, Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilarga zarur bo'lgan elektr energiyasining minimal hajmini, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha Iste'molchi bilan belgilangan va oldindan kelishilgan tartibda etkazib berilishini ta'minlashi shart (7-ilova).

2.4. Iste'molchi tomonidan iste'mol qilgan elektr energiyasining haq to'lanishi lozim bo'lgan hajmi ushbu Shartnomaning 2-ilovasida nazarda tutilgan hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida, hisobga olish priborlari ulangan tok va kuchlanish transformatorlarining transformatsiya koeffitsientlarini inobatga olgan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchining (maishiy iste'molchilar va tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari) elektr energiyasini hisobga olish priborlari, shuningdek elektr energiyasini hisobga

olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari hisobiga sotib olinadi, davlat qiyoslovidan o'tkaziladi, Ta'minotchi korxonaga tomonidan bepul o'rnatiladi, plombalanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Maihiy iste'molchilar va tadbirkorlik sub'ektlarining elektr energiyasini hisobga olish elektron asboblari sotib olish, o'rnatish, ro'yxatga olish, davriy davlat qiyoslovidan o'tkazish va plombalash, shuningdek, mavjud (jumladan, induktсион) hisobga olish priborlari hududiy elektr tarmoqlari korxonasi mablag'lari hisobidan almashtiriladi.

Hisobga olish Iste'molchining aybi bilan buzilgan taqdirda (tok va kuchlanishni o'lchash transformatorlarining ishdan chiqishi, shuningdek ikkilamchi kommutatsiya, hisobga olish priborlarining shikastlanishi va ularning yo'qolishi) hisobga olish nazorat qilish asboblari va ularga tegishli asbob-uskunalarni almashtirish, ta'mirlash, davlat qiyoslovidan o'tkazish va o'rnatish iste'molchi tomonidan ular qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'langan holda, Ta'minotchi korxonaga tomonidan amalga oshiriladi.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblari bir stavkali, tabaqalashtirilgan, o'sib boruvchi, kamayuvchi koeffitsient qo'llaniladigan yoki aholiga tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan Iste'molchi (byudjet tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos stantsiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan nasos stantsiyalari bundan mustasno) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblari:

- yarim tig'iz davr – sutkaning yorug' vaqtida (soat 9-00 dan 17-00 gacha) – belgilangan tarif bo'yicha,

- tig'iz davr – eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6-00 dan 9-00 gacha, kechki eng katta miqdor soat 17-00 dan 22-00 gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'shuvchi koeffitsientni qo'llash orqali;

- tungi davr – sutkaning qorong'ivaqtida (eng kam yuklamali soatlarida: 22-00 dan 24-00 gacha va 00-00 dan 6-00 gacha) – belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koeffitsientni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II tarif guruxi iste'molchilari uchun bir stavkali tarifga mos keladi.

Tabaqalashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan iste'molchiga nisbatan energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun chegimlar (ustamalar) reaktiv energiyani hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi hamda tegishli ravishda iste'mol qilgan (hosil qilgan) reaktiv energiyaning 1 kVarG soat uchun to'lov tarzida undiriladi.

Reaktiv energiyaning shartnomaviy miqdori reaktiv energiyaning iqtisodiy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Reaktiv energiyaning har bir hisobot davri uchun iqtisodiy qiymati, shartnomada ko'rsatilgan va o'rnatilgan tartibda aniqlanadigan quvvat koeffitsientining optimal miqdori hisobga olinib, ushbu davr uchun aktiv energiyaning shartnomadagi miqdori dan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ulangan quvvatidan qat'iy nazar, kripto-aktiv va mayning sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi Iste'molchilar (turli kripto valyutalarda yangi birliklar va komissiya yig'irlari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'mirlash va yangi blok yaratish bo'yicha faoliyat) foydalangan elektr

energiyasi uchun to'lovlarni tegishli tarif guruxiga asosan belgilangan tarifga nisbatan 3 barobar o'suvchi koeffitsientga muvofiq to'laydi.

3.3. Bir necha tarif guruxlariga mansub Iste'molchi bilan hisob-kitoblar, har bir tarif guruxiga alohida o'rnatilgan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi.

3.4. Ta'minotchi korxonaga Iste'molchi (yoki uning vakili) bilan birgalikda iste'mol qilgan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini har oyda yozib olishi va zarur bo'lganda elektr energiyasini hisobga olish priborlarini ulash sxemasini tekshirib ko'rish vakolatiga ega.

Ta'minotchi korxonaga Iste'molchi bilan birgalikda hisob-kitob davri tugagandan so'ng (mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda) hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini har oyda yozib oladi va ushbu Shartnomaning 5-ilovasiga muvofiq shaklda energiya sarfi bo'yicha hisobot tuzadi. Iste'molchi tomonidan elektr energiyasi sarfi to'g'risida Ta'minotchi korxonaga belgilangan shakl bo'yicha o'z qo'li bilan, faksimil, elektron yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilgan hisobot ham iste'mol qilgan amaldagi hajmini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunda, to'lovlarni tabaqalashtirilgan tarifda amalga oshiradigan Iste'molchilar bo'yicha elektr energiyasi sarfi bo'yicha hisobotda foydalanilgan elektr energiyasi (aktiv va reaktiv) to'liq hajmidan tashqari tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlarda foydalanilgan elektr energiyasi hajmlari alohida ham ko'rsatilishi shart.

Elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda EHNAT deb ataladi) joriy etilgan iste'molchilarda hisobga olish priborlaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

3.5. Elektr energiyasi uchun amaldagi tariflar o'zgargan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi ularning kuchga kirishidan kamida 15 kun oldin qarorni ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Bunda elektr energiyasi uchun tariflar o'zgargan sanadan qat'iy nazar, elektr ta'minoti shartnomasi o'z kuchida holadi va iste'molchi foydalanilgan elektr energiyasi uchun yangi tarif kuchga kirgan kundan boshlab xaq to'lashga majburdir.

Tarif o'zgargan taqdirda, iste'molchilar elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya)ning avans tariqasida to'langan hajmi uchun to'lov kundan boshlab keyingi bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod etiladi.

Arifmetik xatoliklar, tariflarni noto'g'ri qo'llash tufayli paydo bo'ladigan kam va ortiqcha to'lovlarni tegishli tarif bo'yicha kVt*soatlarda qayta hisoblab chiqiladi va Ta'minotchi korxonaga tomonidan da'vo muddati doirasida ko'rsatkichlardagi tafovut yoki qo'shimchalar bilan birgalikda hisobga olinadi.

3.6. EHNATga ulangan yoki oldindan haq to'lash qurilmasi va hisobga olish priboriga ega bo'lgan iste'molchilarga elektr energiyasi etkazib berish oldindan to'langan to'lov doirasida amalga oshiriladi.

Iste'molchiga elektr energiyasi etkazib berish ___ % oldindan haq to'lash asosida amalga oshiriladi.

Bunda, hisob-kitobni 50 % oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan Iste'molchi hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib, hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin bildirgi tartibida Ta'minotchi korxonaga murojaat qilgan taqdirda elektr energiyasi Iste'molchiga 50 % oldindan haq to'lash asosida etkazib berilishiga yo'l qo'yiladi. Oldindan haq to'lanmagan hamda 50 % oldindan haq to'layotgan Iste'molchi tomonidan oynning oxirigacha yakuniy hisob-kitob amalga oshirilgan hollarda mazkur Iste'molchiga nisbatan elektr tarmoqlaridan to'liq uzishgacha bo'lgan choralarni ko'riladi.

3.7. Ta'minotchi korxonada iste'molchining energiya sarfi to'g'risidagi hisoboti asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi va besh kun ichida to'lov amalga oshirish uchun hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini taqdim etadi. To'lov to'g'risida xabardor qilish ogohlantirish hisoblanadi.

Iste'molchi turli tarif guruxlariga tegishli bo'lgan bir nechta ob'ektga ega bo'lsa, har bir tarif guruxi uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura taqdim etiladi.

Ta'minotchi korxonada tomonidan maxsus dasturiy mahsulot orqali hisob-faktura va to'lov hisob-varag'i shakllantiriladi hamda iste'molchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, operator orqali ro'uming operatoriga yuboriladi. Agar maxsus dasturiy mahsulot orqali etkazish imkoniyati mavjud bo'lmasa, hisob-faktura va to'lov hisob-varag'i yozma shaklda beriladi.

(Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.06.2019 yildagi 522-sonli "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvarag'-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori)

3.8. hisobga olish pribori ushbu Shartnomaning 3-ilovasiga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansi bo'yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatatsiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmoqining mansublik balansi chegarasida o'rnatilmaganda, chegaradan hisobga olish pribori o'rnatilgan joyigacha bo'lgan hududda energiyaning texnologik sarflanish hajmi Iste'molchi bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi va ushbu Shartnomaning 4-ilovasiga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi va elektr tarmoqining balans bo'yicha mansubligiga qarab hududiy elektr tarmoqlari korxonasining va iste'molchining hisobiga o'tkaziladi. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlarining ko'p qavatli uyning ichki tarmoqidagi yoqotishlar bundan mustasno.

Bunda, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan, tabaqalashtirilgan tarifda to'lovlarni amalga oshiradigan Iste'molchi uchun energiyaning texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan elektr hajmining tegishli paytlariga to'lov haqini yozish uchun qo'shib boriladi (6-, 7-ilovalarni reaktiv quvvatga ega va texnologik bronli iste'molchilar to'ldiradi).

3.9. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha Iste'molchining elektr tarmoqi orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmoqiga uzatilganda, Iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismini, Iste'molchining elektr tarmoqiga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmoqiga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

3.10. Elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi hisobot Iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, Ta'minotchi korxonada tomonidan elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya) iste'molining shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davr uchun elektr energiyasi iste'molining o'rtacha sutkalik amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Bunda hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari nazorat tartibida Ta'minotchi korxonada tomonidan yozib olingandan keyin amalda iste'mol qilgan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi. Qayta hisob-kitob Iste'molchi yoki uning vakili ishtirokida yoxud uning ishtirokisiz belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.11. EHNATning joriy etilishi munosabati bilan Iste'molchining hisobga olish priborlaridagi ko'rsatkichlar avtomatlashtirilgan tizimning texnik parametrlariga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta yoki Iste'molchining buyurtmasi bo'yicha yozib olinadi.

Ta'minotchi korxonada Iste'molchining shaxsiy hisob-raqami va hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari haqida batafsil ma'lumotlar doimiy asosda shakllantirilishi va idoralararo elektron hamkorlik qilishtizimiga real vaqt rejimida yuborilishini ta'minlaydi.

3.12. Shartnomada hisob-kitob davri uchun ko'rsatilgan energiya miqdordan 5 %dan ortiq miqdorda energiya iste'mol qilganda, Iste'molchidan shartnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiq iste'mol qilgan elektr energiyasi jami hajmi uchun belgilangan tarifning 1,15 baravari miqdorida to'lov undiriladi.

Iste'molchining elektr energiyasi haqini to'lash, reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun tarifga ustamalar, shuningdek, noqonuniy foydalanilgan elektr energiyasi qayta hisob-kitobi va penya bo'yicha qarzi bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi (oldindan haq to'lash) sifatida hisobga olinmaydi.

Iste'molchi shartnomada ko'rsatilgan elektr energiyasi xajmini to'liq iste'mol qilmagan taqdirda, avans tariqasida to'langan mablag'lar qaytarib berilmaydi va elektr energiya uchun keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

Hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarzdorlik to'lov muddati o'tgan deb hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun Iste'molchiga to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 % miqdorida, elektr energiyasi maxsus tartibda etkazib beriladigan korxonalar uchun esa 0,2 % miqdorida penya hisoblab yoziladi. Bunda penyaning umumiy miqdori, muddati o'tgan to'lovning 50 % oshmasligi lozim.

3.13. Iste'molchi va Ta'minotchi korxonalar har oyda hisob-kitob davri tamom bo'lgandan keyin besh kun mobaynida o'zaro hisob-kitoblarni taqqoslash dalolatnomasini tuzadi.

3.14. Iste'molchi quyidagi hollarda elektr tarmoqlaridan uziladi:

- hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi oqibatida foydalanilgan elektr energiyasi uchun harzdorlik mavjud bo'lganda;

- Ta'minotchi korxonaning qonuniy talabnomalari bajarilmaganda, shu jumladan, uning tegishli vakillariga hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini olishga yo'l qo'yilmaganda;

- hisobga olish priborlarini qasddan buzganda, ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga tashqaridan aralashish xatti-harakatlari amalga oshirilganda;

- elektr energiyasidan noqonuniy foydalanilgani, elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanish, talon-taroj qilish yoki Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish qoidalar (keyingi o'rinlarda qoidalar deb ataladi) boshqaqoida buzilishi holatlarini aniqlanganda;

- yagona elektr energetika tizimida elektr energiya va quvvatda tanqislik vujudga kelganda, avariyalarga yo'l qo'ymaslik va iste'molchilarning tartibsiz uzib qo'yilishini oldini olish maqsadida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi o'chirish vaqtini ko'rsatgan holda, iste'molchilardan reklamalar, illyuminatsiyalar, bino va inshootlarni yoritgichlarini, elektr isitish va issiq suv bilan ta'minlash qurilmalarini o'chirib qo'yish talabi bajarilmaganda;

Sud organlarining qonuniy kuchga kirgan qarorlariga asosan.

Iste'molchilar va subiste'molchilar (ijarachilar), tadbirkorlik sub'ektlari yoxud fuqarolar o'rtasida turli xil nizoli (kelishmovchilik) holatlarda, faqatgina sudning qonuniy kuchga kirgan qarorlarida tarmoqdan ajratish (ulash) belgilangan bo'lsa Ta'minotchi korxonalar elektr tarmoqdan ajratish yoki qayta ulashni amalga oshiradi.

3.15. hisobga olinmagan energiya uchun amalga oshirilgan qayta hisob-kitob, Iste'molchini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoidalarni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

3.16. Ta'minotchi korxonalar etkazib berilgan elektr energiya uchun qarzdor bo'lgan Iste'molchiga qarzni besh kun ichida to'lanishi haqida xabardor qilishni ta'minlaydi (EHNATga ulangan iste'molchilar bundan mustasno).

Ta'minotchi korxonalar Iste'molchini xabardor qilgan vaqtдан boshlab besh kun muddat o'tgandan so'ng, Iste'molchini debitor qarzdorlik uchun tarmoqdan uzib qo'yish va ularni qaytadan ulashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

qayta ulanishda Iste'molchidan to'lov kuni amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida xaq undiriladi. Bunda, EHNATga ulangan ya'mi, hisobga olish pribori avtomatik tarzda o'chirib-yoqish qurilmasiga ega bo'lgan iste'molchilarni tarmoqlariga qayta ulanishi uchun haq undirilmaydi.

3.17. Iste'molchi elektr tarmoqlarining texnik holatini ta'minlash bo'yicha ekspluatatsiya harajatlari uchun subiste'molchilar, iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida tuzilgan alohida shartnoma bo'yicha elektr energiyasining umumiy hajmidan olinadigan ulushga mutanosib ravishda haq to'laydi.

Ekspluatatsiya harajatlarini subiste'molchiga beriladigan elektr energiyasi tarifiga qo'shishga ruxsat etilmaydi.

3.18. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlari, elektr energiyasidan aholiga elektr energiyasi etkazib berish maqsadida foydalanuvchi idoraviy va munitsipal uy-joy fondi, yuridik shaxslar yotoqxonalari, diniy tashkilotlar, shuningdek, elektr energiyasidan aholi ehtiyojlari uchun foydalanadigan lokal qozonxonalarga maishiy iste'molchilarga belgilangan tarif qo'llaniladi.

3.19. Elektr energiyasini hisobga olish pribori bilan birgalikda foydalaniladigan o'lchov transformatorlarini boshqa joyga o'rnatish va almashtirish Ta'minotchi korxonaga bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Iste'molchining aybi bilan elektr energiyasini hisobga olish priboriga zarar etkazilgan (plombasi buzilsa, oynasi sinsa va boshqalar), elektr energiyasini hisobga olish priborini ulash sxemasi o'zgartirilgan, hisobga olish asbobining xotira bloki va uni dasturlashdan foydalanish tugmasiga (bo'lmasiga) tashqaridan ta'sir ko'rsatilgan, elektr energiyasini hisobga olish pribori dan tashqari elektr qabul qilgichlarni ulash yoki energiya boshqa usulda o'g'irlangan hollarda, Ta'minotchi korxonaning vakolatli vakili belgilangan shakl bo'yicha qoidani buzish dalolatnomasini tuzadi. Ushbu dalolatnoma asosida Ta'minotchi korxonaga Iste'molchini elektr tarmoqidan uzib qo'yadi.

Hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdorining qiymati Ta'minotchi korxonaga tomonidan ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Iste'molchining ish soatlari soni hisobga olingan holda elektr qabul qilgichlarning ulangan quvvati bo'yicha quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- elektr energiyasini hisobga olish pribori, o'lchov transformatorlarini ulash sxemalari o'zgartirilganda, hisobga olish asbobining xotira bloki va uni dasturlashdan foydalanish tugmasiga (bo'lmasiga) tashqaridan ta'sir ko'rsatilganda va hisobga olishni nazorat qilish asboblari dan tashqari elektr qabul qilgichlar ko'z bilan aniqlab bo'lmaydigan (aniqlash murakkab bo'lgan) yashirin yo'l bilan (yashirin elektr simlari, pereklyuchatellar montaj qilinishi va shu kabi) ulanganda – elektr energiyani hisobga olishning nazorat asboblari oxirgi almashtirilgan yoki ulanish sxemalari tekshirilgan kundan boshlab, biroq da'vo muddati dan ortiq bo'lmagan muddatda;

- elektr energiyasini hisobga olish priboriga iste'molchining aybi bilan zarar etkazilganda (plombasi buzilishiga yo'l qo'yilgan, oynasi singan va shu kabi holatlar) yoki elektr energiyasi aylanib chiqishda ko'z bilan aniqlash mumkin bo'lgan (bir harashda aniqlash mumkin bo'lgan) boshqa usulda o'g'irlangan taqdirda – oxirgi marta aylanib chiqilgan yoki elektron ko'rsatkichlar olingan kundan boshlab, biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdori qiymatini hisob-kitob qilishda qoida buzish aniqlanishidan oldingi davr uchun amaldagi to'lovlar hisobga olingan holda, qayta hisob-kitob amalga oshirilayotgan vaqtdagi tarif qo'llaniladi. Bunda I tarif guruxidagi Iste'molchilar uchun hisobga olinmagan elektr energiyasi miqdorining qiymati yagona elektr energetikasi tizimining maksimal yuklanish soatlarida amal qiladigan tarif bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

Elektr energiyasini hisobga olish Iste'molchining aybisiz vaqtinchalik buzilganda etkazib berilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob Ta'minotchi korxonaning qarori bo'yicha, hisobga olish buzilishiga qadar bo'lgan oldingi hisob-kitob davridagi yoki hisobga olish tiklangandan keyingi davrdagi o'rtacha sutkalik sarf bo'yicha amalga oshiriladi.

Elektr energiyaning o'rtacha sutkalik sarfi bo'yicha hisob-kitob qilish davri bir oydan oshmasligi kerak va shu vaqt ichida hisobga olish tiklanishi zarur.

Agar, elektr energiyani hisobga olish priborini ob'ektiv sabablarga ko'ra, ko'rsatilgan muddatda (o'lchash transformatorining, hisobga olish priborining yo'qligi, o'tib bo'lmaydigan yo'llar va shu kabilar tufayli) tiklash imkoniyati bo'lmasa, iste'molchiga etkazib berilgan elektr energiyasi uchun hisob-kitob qilish tartibi va hisobga olishni tiklash muddati iste'molchi va hududiy elektr tarmoqlari korxonasining o'zaro kelishuvi bilan belgilanadi.

Elektr energiyasidan foydalanishda Iste'molchi tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzilishlar Ta'minotchi korxonaga vakili va Iste'molchi tomonidan imzolangan ikki nusxadagi belgilangan shakl bo'yicha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, uning bir nusxasi Iste'molchiga beriladi va Ta'minotchi korxonaga tomonidan ushbu qoidalarni buzgan Iste'molchi elektr qurilmalari tarmoqdan uzib qo'yiladi.

Iste'molchi dalolatnomani imzolashni rad etgan taqdirda, qoida buzish dalolatnomasida iste'molchini tanishtirganlik to'g'risida belgi qo'yiladi.

IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

- Iste'molchining elektr qurilmalarini Ta'minotchi korxonaga elektr tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda ulash;

- sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq o'rnatilgan tartibda elektr energiyasini olish;

- elektr energiyasi sababsiz (asossiz) etkazib berishning to'xtalishi yoki to'xtatib qo'yilishi sabablari to'g'risida belgilangan tartibda axborot olish;

Ta'minotchi korxonaga iste'mol qiladigan elektr energiyasi hajmlarining o'zgartirilishi to'g'risida belgilangan tartibda takliflar kiritish. Bunda elektr energiyasining shartnomadagi hajmini o'zgartirish bo'yicha taklif mo'ljallanayotgan o'zgartirishdan 10 kun oldindan (joriy oy tugaguncha) berilishi kerak elektr energiyasi to'liq hajmda etkazib berilmasligi yoki sifat ko'rsatkichlari davlat standartlariga muvofiq bo'lmagan elektr energiyasi etkazib berilishi oqibatida hududiy elektr tarmoqlari korxonasi yoki elektr ta'minoti korxonasi (aybdor tashkilot) tomonidan etkazilgan zararlarni belgilangan tartibda qoplash;

- Shartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama tartibda bekor qilish;

- Shartnoma bekor qilganda foydalanilmagan elektr energiyasi miqdori uchun to'langan mablag'ni qaytarilishini talab qilish;

- Elektr energiyasi etkazib berilishi to'xtatilganda etkazilgan zarami qoplashini talab qilish;

- elektr ta'minoti shartnomasini tuzishda va bajarishda yuzaga kelayotgan nizolarni hal etish uchun sudga, monopoliyaga qarshi davlat organiga yoki bo'ysunuv bo'yicha yuqori organga (mansabdor shaxsga) murojaat qilish;

- Ta'minotchi korxonaga vakillari kelganda ularni kelganligini qayd etish daftari (shnurlangan holda) tutilgan taqdirda unga Ta'minotchi korxonaga vakili kelganida belgilangan tartibda o'z to'g'risidagi ma'lumotlarni (FIO, mansabdor shaxs buyrug'i rahami va sanasi, lavozimi, sana, kelgan vaqti, kelish sababi va boshqaalar) yozma to'ldirish, imzo chektirish;

- elektr energiyasi priborlari va qurilmalari xavfsizligini ta'minlash maqsadida doimiy ishlaydigan kuzatuv kameralarini o'rnatish.

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqaruqlarga ham ega.

4.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

Taminotchi korxonadan belgilangan elektr energiyasini iste'mol qilish rejimiga rioya etish;

- foydalanilgan elektr energiyasi (quvvati) uchun o'z vaqtida haq to'lash;
- ishlatilayotgan elektr qurilmalari, asboblari va asbob-uskunalarining zarur texnik holatini va iste'molchilarning elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash, hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga yoki elektr ta'minoti korxonasiga elektr asbob-uskunalarining nosozligi to'g'risida xabar qilish;
- elektr energiyasidan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- "O'zenergoinspeksiya"ning yozma ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajarish;
- Elektr qurilmalarining tuzilishi qoidalariga talablariga rioya etish;
- o'rnatilgan tartibda Taminotchi korxonadan vakiliga elektr energiyasini hisobga olish priborlarini ko'rishiga imkon berish;

- yil mobaynida yangidan ishga tushiriladigan elektr qurilmalaridan foydalanish boshlanishidan kamida bir oy oldin elektr energiyasining zarur miqdori uchun hududiy elektr tarmoqlari korxonasiga buyurtmanoma berish;

- kelgusi yil uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda elektr energiyasini elektr tarmoqlaridan uzatishda, ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlar turlarining) texnologik jarayoni ishlab chiqarish ehtiyojlariga, ishlab chiqarish binolari va ma'muriy binolari yoritish, isitish, shamollatish uchun elektr energiya sarfini, shuningdek, ushbu elektr tarmoqlariga ulangan subiste'molchilarning ehtiyojini hisobga olish.

Iste'molchi tomonidan hisobga olish pribori EHNATda muqobil (soz holda) ishlashiga to'sqinlik qilishi amaldagi qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlariga asosan javobgar bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ulangan quvvati 5 MVt va undan ortiq bo'lgan Iste'molchi Taminotchi korxonaning talabiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va bu haqida xabar berishi shart: iste'mol qilinayotgan quvvatning har sutkalik, har oylik sarfi va amaldagi miqdori; yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrlarida reaktiv energiya va quvvatning har sutkalik sarfi;

yagona elektr energetika tizimining eng ko'p yuklamasining o'tish davrida aktiv energiya (quvvat)ning har 30 daqiqadagi sarfi.

Ulangan quvvati 250 kVA va undan ortiq bo'lgan iste'molchilarning yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlar bilan birgalikda quyidagilarga majbur:

- mahsulot birligini ishlab chiqarish (ishlarni amalga oshirish) uchun elektr energiyasi sarfining texnik va iqtisodiy jihatdan asoslangan ilg'or normalarini ishlab chiqish - umumiy ishlab chiqarish va texnologik; yakka tartibdagi va gurux bo'yicha; yillik, choraklik va oylik ulami ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasi takomillashtirilishi (o'zgartirilishi) va yangi texnika joriy etilishiga harab qayta ko'rib chiqish;

- korxonada bo'yicha, shu jumladan ko'p energiya sarflaydigan uskunalar, sexlar va iste'molchilar guruxlari bo'yicha elektr energiyasi balanslarini tuzish hamda ular asosida ishlab chiqarish jarayonlarida elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini tahlil qilish, elektr energiyasining samarasiz sarflanishi va isrof bo'lishini aniqlash, ularni kamaytirish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- kelgusi davr uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojni va elektr tarmoqlarining energiya o'tkazish qobiliyatini oshirish, elektr ta'minoti sxemalarini takomillashtirish zaruriyatini aniqlash maqsadida (mahsulot ishlab chiqarishning, bajariladigan ish turlarining

mo'ljallanayotgan prognoz hajmlaridan va elektr energiyasi sarfi me'yorlaridan kelib chiqib, ularni kamaytirish va elektr energiyasini tejashni hisobga olgan holda) elektr energiyasining bir yil va kelgusi davr uchun balanslarini tuzish;

- mahsulot (ishlar) birligiga elektr energiyasi sarfining tasdiqlangan me'yorlariga rioya qilishva ularni kamaytirish bo'yicha belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash; elektr energiyasini tejash bo'yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Iste'molchi Ta'minotchi korxonaga tomonidan o'rnatilgan tartibda belgilangan energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarishi shart.

Yillik elektr energiyasi iste'moli ikki ming tonnadan ortiq shartli yoqilg'iga teng yoki ortiq bo'lgandavakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda energetika tekshiruvidan o'tkaziladi;

- Ta'minotchi korxonaga vakillari tashrif buyurganda qonunbuzilish holati aniqlanganida va aniqlanmaganida taqdirida ham belgilangan tartibda va shaklda dalolatnoma rasmiylashtirib, uni bir nusxasini taqdim etilishini talab qilish;

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqamajburiyatlarga ham ega.

4.3. Ta'minotchi korxonaga quyidagi huquqlarga ega:

iste'molchilardan elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan majburiyatlarini tegishli darajada bajarishini talab etish;

iste'molchilar tomonidan elektr ta'minoti shartnomasi shartlari bajarilmasligi yoki buzilishi oqibatida unga etkazilgan zararining belgilangan tartibda qoplanishi;

avariya rejimida iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish (o'chirish);

EHNATga ulangan va oldindan to'langan mablag' tugagandan so'ng elektr energiyasi uchun oldindan to'lovni amalga oshirish qurilmasiga ega hisobga olish pribori mavjud bo'lgan iste'molchilarni uzish. Bunda uzilgandan so'ng iste'molchining ko'rishini mumkin bo'lgan zarari uchun Ta'minotchi korxonaga javobgar bo'lmaydi.

qoidalar va boshqanormativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan holatlarda Iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

Ta'minotchi korxonaga qonunchilikda belgilangan boshqahuquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.4. Ta'minotchi korxonaga quyidagilarga majbur:

Iste'molchiga elektr energiyasini elektr tarmoqi orqali elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik bo'linish chegarasigacha shartnomada ko'rsatilgan hajmda muntazam etkazib berish;

uskunalar, elektr uzatish liniyalarini, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek, o'z elektr xo'jaligi ob'ektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr tarmoqi xo'jaligi ob'ektlarini rejali ta'mirlanishi tufayli elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida kamida 3 kun oldin ogohlantirish;

Iste'molchini elektr energiyasini etkazib berilishi to'xtatilishi va to'xtatilish sabablari to'g'risida xabardor qilish (Iste'molchi mas'ul xodimlarini uyali aloqa vositasi orqali (telefonogramma), ovozli xabar, telegram xabarnoma, SMS xabar (internet saytlar) orqali yoki yozma tarzda);

kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida, cheklashlarni hajmi va vaqti ko'rsatilgan holda Iste'molchiga oldindan xabar berish;

elektr energiyasi to'liq etkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqabuzilishlar to'g'risidagi Iste'molchining arizasini, ariza olingan kundan boshlab 10

kundan kechiktirmay ko'rib chiqish qoidalarga muvofiq bartaraf etish va batafsil javob yuborish;

Iste'molchiga o'rnatilgan tartibda etkazib berilgan energiya hisobini yuritish;

Iste'molchining belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda elektr energiyasining oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, elektr energiyasining oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'lmagan taqdirda - bu haqda, rad etish sababini ko'rsatgan holda, iste'molchiga xabar qilish;

Iste'molchida o'rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish va o'rnatish, plombalashni ta'minlash;

davlat standartiga (amaldagi GOSTlar) muvofiq bo'lgan elektr energiyasini etkazib berish.

iste'molchining sarflagan elektr energiyasi uchun harzi vujudga kelganda harzni besh kun muddatda to'lash zarurligi to'g'risida yozma xabardor qilish (EHNATga ulangan iste'molchilar bundan mustasno);

Iste'molchilarga tuziladigan dalolatnomalarning belgilangan tartibda tasdiqlangan shakllarini o'z veb saytida e'lon qilishi;

ishdan bo'shatilgan Iste'molchilar bilan ishlab kelgan xodimlarni (inspektorlarni) ishdan bo'shaganida va yangi xodimlarning ishga tayinlanginligi to'g'risida o'z veb saytida va ijtimoiy tarmoqlari sahifalarida e'lonlar berib, Iste'molchilarni xabardor qilish;

Iste'molchiga kuzatuv, o'rganish, borganda qonunbuzilish holati aniqlanganida va aniqlanmaganida taqdirida ham belgilangan tartibda dalolatnoma rasmiylashtirib, uni bir nusxasini Iste'molchiga taqdim etish;

Iste'molchi tomonidan elektr ta'minoti korxonasi vakillarini qayd etish da'ftari tutilgan taqdirda unga Ta'minotchi korxonada vakili borganida belgilangan tartibda o'z to'g'risidagi ma'lumotlarni (mansabdor shaxs buyrug'i raqami va sanasi, lavozimi, sana, kelgan vaqti, kelish sababi va boshqalar) yozma to'ldirib, imzo chekish;

Ta'minotchi korxonada qonunchilikka muvofiq boshqamajburiyatlarga ham ega.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Elektr ta'minoti shartnomasi bo'yicha taraflar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi shuningdek, shartnoma shartlari bajarilmagan yoki tegishli tarzda bajarilmagan hollarda, Ta'minotchi korxonada buning natijasida etkazilgan haqiqiy zararni qoplashga, Iste'molchi esa etkazilgan haqiqiy zararni qoplashga majbur.

5.2. Ta'minotchi korxonada Iste'molchi oldida moddiy javobgar bo'lmaydi agar:

Iste'molchi elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilmay, elektr energiyasi iste'moli yoki quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'yganda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan belgilangan elektr energiyasi iste'molini cheklash jadvalini bajarmagan kunlarda sifati past elektr energiyasi etkazib berilganligi uchun;

zaxira manbai avtomatik ishga tushganda, avtomatik qayta ulash va avtomatik tarzda tez-tez o'chirishlar vaqtida elektr energiyasini etkazib berish borasidagi tanaffuslar uchun.

elektr energiyasi ishlab chikaruvchilar (IES, GES) va uni magistral tarmoq orqali etkazib beruvchi (MET) korxonalar tomonidan elektr ta'minotida uzilishlar bo'lganda.

5.3. Tomonlar ularning xohish va harakatlariga bog'liq bo'lmagan tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababli ushbu sharoitlarda qaytarib bo'lmaydigan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlarni o'z ichiga olgan engib bo'lmagan kuch (fors-major) oqibatida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi.

5.4. Mazkur shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha kelishmovchilik va nizolar muzokara o'tkazish orqali hal qilinadi. Kelishmovchiliklarni muzokara o'tkazish orqali hal qilishning iloji bo'lmaganda, ular qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VI. ELEKTR ENERGIYASINI CHEKLASH YOKI UZIB QO'YISH SHARTLARI.

6.1. quvvat va elektr energiyasi iste'moli bo'yicha cheklash va uzib qo'yish jadvallari hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan ishlab chiqiladi, mahalliy davlat hokimiyati idoralari bilan kelishiladi, hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan tasdiqlanadi va yagona elektr energetika tizimida elektr quvvati va energiya tanqisligi paydo bo'lganda joriy etiladi. Bunda Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarori bilan tasdiqlangan Tabiiy monopoliyalar sub'ektlari tomonidan majburiy xizmat ko'rsatilishi kerak bo'lgan iste'molchilar ro'yxatida qayd etilgan Iste'molchilarga asosiy faoliyatini yoki asosiy funktsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan eng kam darajada etkazib berilishi nazarda tutiladi.

6.2. Elektr energiyasini cheklash va uzib qo'yish jadvallari elektr stantsiyalari va elektr tarmoqlari uskunalarning yo'l qo'yib bo'lmaydigan sharoitlarda ishlashining oldini olish, yagona elektr energetika tizimining barqaror parallel ishlashini ta'minlash, avariya yuzaga kelishining oldini olish hamda iste'molchilarning tartibsiz uzib qo'yilishini bartaraf etish maqsadida yagona elektr energetika tizimida elektr energiyasi va quvvat tanqis bo'lgan hollarda tuziladi.

6.3. Elektr energiyasini cheklash va uzib qo'yish jadvallari joriy yilning 1 oktyabridan keyingi yilning 1 oktyabrigacha bo'lgan davr uchun tuziladi hamdajadvallarga kiritilgan barcha iste'molchilar uchun ularni bajarish majburiy hisoblanadi.

Jadvallarning quyidagi turlari tuziladi:

- yagona elektr energetika tizimida yoqilgi yoki gidroresurslar etishmaganda elektr energiyasini ($kVt \cdot soatda$) cheklash jadvali. Jadvalda elektr energiya iste'molini iste'molchilarning texnologik bronigacha, keyinchalik esa avariya bronigacha (cheklashga mansub bo'lmagan ob'ektlardan tashqari) va bunda iste'molni 5 ta navbatga bo'lgan holda qisqartirish nazarda tutilishi lozim;

- yagona elektr energetika tizimida quvvat etishmaganda quvvatni ($kVtda$) cheklash jadvali. Jadvalda yagona elektr energetika tizimining ertalabki va kechki eng katta yuklamalari yuzaga keladigan soatlarda iste'mol qilinadigan quvvatni iste'molchilarning avariya bronigacha kamaytirish va bunda iste'mol qilinadigan quvvatni 5 ta navbatga bo'lish nazarda tutilishi lozim;

- quvvat taqchilligi yuzaga kelishi natijasida avariya xavfi paydo bo'lganda va cheklash jadvallarini joriy qilishimkoniyati bo'lmaganda, quvvatni cheklash jadvali. Jadvalda uzib qo'yilishi mumkin bo'lmagan ob'ektlardan tashqari, yagona elektr energetika tizimi iste'molchilarini to'liq uzib qo'yish va uzib qo'yiladigan quvvatni 5 navbatga bo'lish nazarda tutilishi lozim.

6.4. Iste'molchilarni cheklov jadvallari asosida yoxud cheklov jadvallaridan tashqari elektr energiyasini cheklash va uzib qo'yish elektr stantsiyalari va elektr tarmoqlari uskunalarning yo'l qo'yib bo'lmaydigan sharoitlarda ishlashining oldini olish, yagona elektr energetika tizimining barqaror parallel ishlashini ta'minlash, avariya yuzaga kelishining oldini olish hamda iste'molchilarning tartibsiz uzib qo'yilishini bartaraf etish maqsadida yagona elektr energetika tizimida elektr energiyasi va quvvat tanqis bo'lgan hollarda "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan berilgan fannoyish asosida kiritilishi mumkin.

VII. KORRUPTSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV.

7.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishonitradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

Etkazib beriladigan energiya hajmi

Tarif guruxi ✓Faoliyat turi illegoronaIste'molchi elektr qurilmalarning ulangan quvvati: 400 kVA (kVt)Texnik shart bo'yicha ruxsat berilgan quvvat kVtElektr ta'minoti ishonchligi bo'yicha toifasi (loyiha bo'yicha) Elektr ta'minoti ishonchligi bo'yicha toifasi (amalda) hisob-kitob turi: sup. stavkame

tarif turi: tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki axoliga tenglashtirilgan (keraklisi to'liq ko'rsatiladi)

| Oylar | Энергия хажми | |
|-----------|---------------|---|
| | ming. kVt.s | Reaktiv energiyaning iqtisodiy miqdori ming. kVar.s |
| Yanvar | | |
| Fevral | | |
| Mart | | |
| Aprel | | |
| May | | |
| Iyun | | |
| Iyul | | |
| Avgust | | |
| Sentyabr | | |
| Oktyabr | | |
| Noyabr | | |
| Dekabr | | |
| Yil, jami | | |

Tashkilot kuniga foydalanadi 24 soat, o'g'a 30/31 kun
Umumiy yuklamaga nisbatan smenalar bo'yicha yuklanish % hisobida I, II, III

Ta'minotchi korxonasi:

M.O'., imzo, lavozimi, F.I.Sh.



Iste'molchi:

M.O'., imzo, lavozimi, F.I.Sh.

110005– sonli shartnomaga
2 – ilova

| Iste'molchining (subiste'molchining) hisobga olish pribori o'rnatilgan joylari, turi va kuchlanish toifasi (kV) | Hisobga olish pribori turi (aktiv), (nominal toki) | Hisobga olish pribori raqami | hisobga olish pribori klemma qopqogidagi plombaning raqami | O'lchov transformator- larining transformatsiya koeffitsienti | | Hisob-kitob koeffitsienti | Hisobga olish priborining shartnoma tuzilgan kundagi ko'rsatkichlari | Tarif turi so'm/ 1 kV*soat |
|--|--|------------------------------------|---|---|---|------------------------------|---|----------------------------------|
| | | | | | | | | |
| JKJAD,4 10 molla | ATS 541 | 526462 | 301281 | | 1 | | A2 30827 | 450 |

Tahqiqatchi korxonasi:



Iste'molchi:

M.O.'s. imzo, lavozimi, F.I.Sh.



11 0005 -sonli shartnomaga
3 - ilova

Tomonlar elektr tarmoqlarining balans mansubligi va ekspluatatsiya qilishbo'yicha mas'ullik chegarasi dalolatnomasi

hisobga olish pribori davlat raqami _____ tok transformatori _____ kuchlanish transformatori _____ jami koeffitsient _____ ulangan quvvati _____ kVt
hisobga olish pribori o'rnatilgan manzil: _____

shahar, q. fy, m. fy, ko'cha nomi, uy raqami

Tarif guruxi _____ Faoliyat turi _____
Tarif guruxi _____ Faoliyat turi _____

1. Iste'molchining balansida quyidagi elektr qurilmalar mavjud:

a) Havo elektr tarmoqi _____

b) kabel elektr tarmoqi _____

v) podstantsiyalar, transformator podstantsiyalari TP rahami _____, 700 kVA

2. Iste'molchi va Ta'minotchi korxonaga o'rtasidagi elektr tarmoqlarining balans bo'yicha Mansublik chegarasi

shahar "Osoq" 110/6kV GP-P "Soyuz Kollekt" kabo mahallalaridan shu hisob bilan ta'minlangan
va shu hisob bilan ta'minlangan

3. Ulardan quyidagilarga:

a) *2-balkaga kincamidan quyidagilarga barcha barcha*
shu hisob bilan ta'minlangan
shu hisob bilan ta'minlangan
xizmat ko'rsatish Iste'molchi xodimlari tomonidan,

b) _____

Iste'molchi bilan 202__ yil _____ sanada tuzilgan _____-sonli Texnik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida Ta'minotchi korxonaga tomonidan xizmat ko'rsatiladi. Texnik xizmat ko'rsatish shartnomasi tuzilmasa Ta'minotchi korxonaga tomonidan xizmat ko'rsatilmaydi.

4. Elektr qurilmalarning holati va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha javobgarlik chegarasi quyidagicha belgilandi:

2-balkaga kincamidan quyidagilarga barcha barcha
shu hisob bilan ta'minlangan
shu hisob bilan ta'minlangan

Ta'minotchi korxonasi:



Iste'molchi:

[Signature]
M.O., imzo, lavozimi, F.I.Sh.



-sonli shartnoma

Energiyani yo'qolishlarini aniqlash bo'yicha DALOLATNOMA

Energiya hisobga olish priborlari elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansubligi chegarasi hisobga olingan holda mansublik chegarasidan xisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lgan qismi hisoblash yo'li bilan aniqlanadi va quyidagilarga hisoblanadi:

a) quvvati _____ kVA bo'lgan transformatorlardagi oylik aktiv energiyaning yo'holishlari _____ kVt.soat yoki _____ %, reaktiv energiya yo'holishlari _____ kVAr.soat yoki _____ % tashkil etadi;

b) Iste'molchining kabel liniyalaridagi har oylik energiyani yoqotish:

Uzunligi _____ m;
Kesim yuzasi _____ mm²;
Rusumi _____ ;
Kuchlanishi _____ kV bo'lsa, _____ kVt.soatni, yoki _____ % tashkil etadi;

v) Iste'molchining havo liniyalaridagi har oylik energiya yo'holishlari:

Uzunligi _____ m;
Kesim yuzasi _____ mm²;
Rusumi _____ ;
Kuchlanishi _____ kV bo'lsa, _____ kVt.soatni, yoki _____ % tashkil etadi.

Energiyani har oyda jami yoqotishlar hajmi hisob davridagi energiya sarfining _____ foizini tashkil etadi.

Ushbu Shartnomaning 3.8 bandiga asosan yuqorida ko'rsatilgan energiya yo'holishlari Iste'molchining har hisob-kitob davri uchun, hisob-kitob davridagi amaldagi energiya iste'molidan kelib chiqib foiz hisobida yoki tarafdaming kelishuvi asosida aniq qiymatlar ko'rinishida hisob-kitob qilinadi.

Ta'minotchi korxonasi



Iste'molchi:



kompensatsiya qurilmalarining ishlash rejimi

1. Kompensatsiya qurilmalarining belgilangan quvvati

| T/r | Kompensatsiya qurilmalarining turlari | quvvati | Ulanish vaqti | | Jami |
|------|--|---------|---------------|-----------|------|
| | | | Ertalab | Kechqurun | |
| 1. | Kondensatorlar, kVAr 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori, jumladan: | | | | |
| 1.1. | Avtomatik boshqariladigan: 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori, | | | | |
| 1.2. | Qo'lda boshqariladigan: 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori, | | | | |
| 2. | Sinxron dvigatellar - (SD), kVt | | | | |
| 3. | SDning reaktiv quvvati, kVar (SDning yratilgan quvvatining 30 foizi, kVt) | | | | |
| 4. | Jami (1b.Q3b.) kVAr: 1000 Vgacha 1000 Vdan yuqori. | | | | |

IZOH: avtoorejimda ishlaydigan kondensator qurilmalari bilan jihozlangan tashkilotlar ulanish vaqtlarini to'ldirishi shart emas.

2. Reaktiv energiyaning iqtisodiy miqdori

| Yil, oy | Reaktiv energiyaning iqtisodiy miqdori (kVAr.seat) | Shu jumladan tarif guruhlari bo'yicha | | |
|-------------|--|---------------------------------------|----|----|
| | | I | II | IV |
| Yanvar | | | | |
| Fevral | | | | |
| Mart | | | | |
| April | | | | |
| May | | | | |
| Iyun | | | | |
| Iyul | | | | |
| Avgust | | | | |
| Sentyabr | | | | |
| Oktyabr | | | | |
| Noyabr | | | | |
| Dekabr | | | | |
| Jami | | | | |

Reaktiv energiyaning har bir hisobot davri uchun iqtisodiy qiymati, reaktiv quvvat kompensatsiyasi bo'yicha ishlarni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 10 oktyabrda 1864-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) hamda (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektrenergiasivatabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimchachora-tadbirlar" 2018 yil 12 yanvardagi 22-son qarori) aniqlanadi hisobot davrining yakuni bo'yicha reaktiv energiya iqtisodiy qiymatining amaldagi miqdori iste'mol qilgan reaktiv energiya va quvvat koeffitsientining shartnomaviy miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tarifga ustama qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan holda faol energiyaning amaldagi tarifi bo'yicha: 5% - reaktiv energiyadan iqtisodiy qiymat doirasida foydalanilganda, bu amalda iste'mol qilgan aktiv energiya va quvvat koeffitsientining shartnomaviy miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

10% - reaktiv energiyadan iqtisodiy qiymat miqdoridan ortiq foydalanilganda, bu amalda iste'mol qilgan aktiv energiya va quvvat koeffitsientining shartnomaviy miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

Reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun elektr energiyasi tarifiga ustamalar jarima sanksiyasi xisoblanmaydi va elektr ta'minoti shartnomasiga asosan undiriladi.

Reaktiv energiya o'rni etaricha to'ldirilmasligi hisobiga quvvat koeffitsientining normativ qiymati iste'molchi tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi aniqlanganda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aktiv elektr energiya yo'holishi qiymatining texnik-iqtisodiy hisob-kitoblari amalga oshiriladi, shuningdek, quvvat koeffitsienti ko'rsatkichlari belgilangan normativlarga nisbatan pasaytirilganligi uchun iste'molchilardan qo'shimcha mablag'lar undiriladi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 10 oktyabrda 1864-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Reaktiv quvvat kompensatsiyasi bo'yicha ishlarni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektrenergiasivatabiiy gazdan foydalanish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimchachora-tadbirlar" 2018 yil 12 yanvardagi 22-son qaroriga asosan).

Bunda hisob-kitoblar va qo'shimcha mablag'ni undirish hisob-kitob davrida Shartnomada ko'rsatilganiga nisbatan Iste'molchi tomonidan quvvat koeffitsientining amaldagi qiymatini pasaytirishga yo'l qo'yilganligi to'g'risida "O'zenergoinspeksiya"ning tasdiqlovi bo'lganda amalga oshiriladi.

Tarif chegimalari Iste'molchi yagona elektr tizimi tamoqida elektr tarmoqining katta yuklamali soatlarida reaktiv energiya hosil qilganda va elektr tarmoqining kichik yuklamali soatlarida energiya tizimi tamoqidan reaktiv energiya iste'mol qilinganda, agar Iste'molchining bunday rejimida ishlash zarurati Shartnomada ko'rsatilgan bo'lsa, taqdim etiladi.

Chegirma qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan holda aktiv energiya uchun amaldagi tarifning 15% miqdorida belgilanadi.

Taminotchi korxonasi

MO., imzo, lavozimi, F.I.Sh.
Iste'molchi:



Iste'molchi:

MO., imzo, lavozimi, F.I.Sh.

